

ARAB TILIDA SO'Z TURKUMLARI

Shukurova Madinaxon Zafar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

madinashukurova006@gmail.com

Umurzakova Oygu Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada arab tilidagi so'z turkumlari o'r ganib chiqilgan. Arab tilidagi so'z turkumlari boshqa tillardan farqi o'laroq uch qismga bo'linishi, ularning turlari berilib, misollar bilan yoritilgan. Arab tili o'r ganuvchilari uchun so'z turkumlarini o'r ganish oson bo'lishi uchun mazkur maqolada mavzu jadvallardan foydalanilgan holda tushuntirilgan.*

Kalit so'zlar va iboralar: so'z turkumi, ism, fe'l, old ko'makchi.

Аннотация. В данной статье изучены части речи в арабском языке. Указано, что части речи в арабском языке, в отличие от других языков, делятся на три группы, их виды представлены и объяснены с примерами. Чтобы облегчить изучение частей речи для изучающих арабский язык, в статье тема разъяснена с использованием таблиц.

Ключевые слова и выражения: части речи, имя, глагол, предлог.

Annotation. This article examines the parts of speech in the Arabic language. It highlights that, unlike other languages, parts of speech in Arabic are divided into three categories, with their types explained and illustrated with examples. To make it easier for Arabic learners to study parts of speech, the topic is explained in this article using tables.

Keywords and phrases: parts of speech, noun, verb, preposition.

Arab tili boy va qadimiy til bo'lib, uning grammatik tizimi juda keng qamrovli. So'z turkumlari arab tilining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Arab tilida barcha so'zlar uch asosiy turkumga bo'linadi: ism (الاسم), fe'l (الفعل) va yordamchi so'z turkumi (الحرف). Quyida ularning har biri batafsil tushuntiriladi.

Ismlar - الاسم

Bu turkumga o'zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'lning harakat nomi shakli, sifatdosh kabi vazifadosh shakllari, modal so'zlar kiradi. Misol uchun:

Ot	Sifat	Olmosh	Son	Harakat nomi
كتاب	سوداء	أنت	واحد	ذهب
سماء	طويل	أنا	عشرة	قرأة
حديقة	جميلة	نحن	عشرون	كتابة
طفل	لذيد	هم	مئة	سمع
كلب	جيدة	أنتما	الف	دخول

- على سبيل المثال:
- ١) الحقيقة السوداء جميلة.
 - ٢) قراءة الكتب مفيدة.

Arab tilida ismlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Jins

O'zbek tilidan farqli ravishda arab tilida ismlar ikki jinsga ajratiladi: muzakkars (erkak jinsi) va muannas (ayol jinsi). Misol uchun, **uy - بيت** muzakkars jinsida va **xona - غرفة** muannas jinsida. Bundan tashqari ikkala jinsda ha bir xil ishlataladigan istisnosozlar ham mavjud.

إبط	إصبع	كبد	رحم
فرس	دلو	عضد	سروال
عجر	فالك	عنق	قوس

2. Son

Ismlar birlik (فرد), ikkilik (ثنى) va ko'plik (جمع) shakllarda bo'lishi mumkin. Masalan:

Birlik - مفرد	Ikkilik - ثنى	Ko'plik - جمع
مُدرّس طالبة	مُدرّسان طالبات	مُدرّسون طالبات

3. Holat

Ingliz tilidagi kabi arab tilida ham aniq va noaniq holatlar mavjud, biroq ozgina farq qiladi. Ismlarning aniq holati - **معرفة** va noaniq holati - **نكرة** deyiladi. Misol uchun:

اسم نكرة	اسم معرفة
صديق	الصديق
بنت	البنت
يوم	اليوم
أسرة	الأسرة
شمس	الشمس

Fe'llar - الفعل

Har bir til grammatikasining eng katta va murakkab mavzulardan biri bo'lgan fe'l so'z turkumi ish-harakat yoki holatni bildiradi va 3 zamonda bo'ladi:

1. **O'tgan zamon fe'li** - الفعل الماضي
2. **Hozirgi-kelasi zamon fe'li** - الفعل المضارع
3. **Buyruq fe'li** - الفعل الأمر

O'tgan zamon fe'li (الفعل الماضي)

O'tgan zamon fe'li ish-harakatni nutq so'zlayotgan paytdan sodir bo'lganini anglatadi va 3 o'zak va 4 o'zak undoshli fe'llarga bo'linadi. Ko'p uchraydigan turi bu 3 o'zak undoshli fe'llardir. I bob 3 o'zak undoshli fe'llarning o'tgan zamon shakli quyidagicha tuslanadi.

Shaxs	Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
III	Muzakkars Muannas	كَتَبْوَا كَتَبْنَ	كَتَبْنَا كَتَبْنَاتَا	كَتَبْتُ كَتَبْتَ
II	Muzakkars Muannas	كَتَبْمُ كَتَبْنَ	كَتَبْنَمَا كَتَبْنَاتِمَا	كَتَبْتُ كَتَبْتَ
I	Mz/mn	كَتَبْنَا		كَتَبْتُ

Hozirgi-kelasi zamon- الفعل المضارع

Hozirgi-kelasi zamon fe'li nutq so'zlanayotgan payt davomida, undan keyin va ba'zida nutq so'zlanayotgan paytdan avval sodir bo'lgan ish-harakatlarni ifodalaydi va shaxs-sonda quyidagicha tuslanadi:

Shaxs	Jins	Ko'plik	Ikkilik	Birlik
III	Muzakkar Muannas	يَكْتُبُونَ تَكْتُبُنَ	يَكْتُبَانِ تَكْتُبَانِ	يَكْتُبُ تَكْتُبُ
II	Muzakkar Muannas	تَكْتُبُونَ تَكْتُبِينَ	تَكْتُبَانِ تَكْتُبَانِ	تَكْتُبُ تَكْتُبِينَ
I	Mz/mn	تَكْتُبُ		أَكْتُبُ

الفعل الأمر - Buyruq fe'li

Arab tilida "buyruq maylidir" "الفعل الأمر" buyruq maylidagi fe'l II va III shaxsda buyruq, iltimos ma'nolarini (o'qi, o'qing, o'qisin, o'qisinlar kabi), I shaxsda esa xohish-istikom ma'nolarini ifodalaydi (o'qiy, o'qiylik kabi). II shaxs uchun quyidagicha tuslanadi:

**Buyruq maylidagi fe'llar
quyidagicha tuslanadi**

Ma'nolari	Jinsi	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
Urgin	Mz	ا ضرب	ا ضربا	ا ضربو
Uringlar	Mn	ا ضرب	ا ضربا	ا ضربو

الحروف - Yordamchi so'z tarkumi

Old ko'makchilar (predloglar) - حرف الجر - o'ziga bog'lanib, undan keyin kelayotgan so'zni qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Arab tilida tub va yasama ko'makchilar mavjud:

1. Tub ko'makchilar

في، على، إلى، من، عن، حتى، عند،منذ، بـ، أـ، لـ.

2. Yasama ko'makchilar

Yasama ko'makchilar (ot-predloglar) mustaqil holatda ham ma'no anglatadigan hamda ko'makchilik vazifasini ham bajaradigan so'zlardir.

Masalan:

(١) أمّام - *أمام البيت* - *oldida* - *old tomon*
 (٢) جنّب - *جنب الجامعة* - *yonida* - *yon tomon*
 (٣) تحت - *تحت الشجرة* - *tagida* - *past tomon*

Bundan tashqari murakkab ko'makchilar ham mavjud

- *natijasida* - نتائجَةً لـ
- *mobaynida*, ...ning davomida - عضون في -
- *vositasida* - بواسطة -
- *avval*, ...dan avval - قبل من -

➤ *huzuridan* - عَنْدَ مَنْ

Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi so‘z turkumlarini o‘rganish uning grammatikasi asosida yotgan noyob tuzilma va tasniflash tizimini yoritadi. So‘zlar uch asosiy turkumga — ism, fe’l va harfga bo‘linishi arab tilining sintaksisi va semantikasi asosini tashkil qiladi. Ushbu turkumlarni tushunish tilni chuqur egallash uchun muhim bo‘lib, o‘rganuvchilarga gap tuzilishini to‘g‘ri tahlil qilish va so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlaydi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxatি:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2019, (65 bet).
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2009, (39, 257-258 betlar).
3. Носиров О., Юсупов М. Ах-На’йм арабча-ўзбекча лугати. – Наманган, 2014.
4. www.ziyouz.com
5. www.arabic.uz